

## **Davlat hisobidan repatriatsiyani amalga oshirish**

03.04.2026

Yaponiyaning O'zbekistondagi elchixonasi

3-aprel kuni Yaponiya Immigratsiya va rezidentlikni boshqarish agentligi Yaponiyada noqonuniy yashab kelgan bir nafar O'zbekiston fuqarosini deportatsiya qildi. Ushbu shaxs qisqa muddatli viza asosida Yaponiyaga kirgach, qochqinlik maqomini olish uchun ariza topshirgan, biroq rad etilgandan so'ng ham Yaponiyada qolishda davom etgan. Shuni alohida ta'kidlaymizki, **"Turizm", "Qarindoshlar/tanishlarni ziyorat qilish" yoki "Biznes safari" maqsadidagi qisqa muddatli vizalar bilan Yaponiyada ishlash qat'iyan man etiladi.**

Hozirgi vaqtda "qochqinlik maqomini so'rash orqali Yaponiyada uzoq vaqt qolish yoki ishlash mumkin" degan yolg'on ma'lumotlar tarqalmoqda. Biroq, bunday maqsadlarda topshirilgan arizalar qabul qilinmaydi. Qochqinlik arizasi rad etilgan taqdirda, shaxs immigratsiya markaziga joylashtirilishi yoki majburiy tartibda vataniga qaytarib yuborilishi mumkin. Shuningdek, yolg'on ma'lumot yoki noqonuniy yo'llar bilan ariza topshirish qat'iy huquqiy choralar ko'rilishiga sabab bo'ladi.

"Yaponiyada uzoqroq qolish yoki ishlash imkonini beramiz" deb va'da beruvchi vositachilarning (maklerlarning) yolg'onlariga ishonmang. Asossiz va noto'g'ri topshirilgan arizalar kelajakda Yaponiyaga qayta kirishingizga jiddiy to'sqinlik qiladi.